

## IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARI TAYYORLASH TIZIMI

**Xidirova N. Sh.**

Buxoro davlat pedagogika instituti

1- bosqich magistranti.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizim modeli ishlab chiqish zaruriyati, uning tarkibiy qismlari hamda amaliy ahamiyati yoritilgan. Maqolada ta‘lim jarayonida ijodiy faoliyatni shakllantirish, mustaqil fikrlash, innovatsion yondashuv va ilmiy izlanishga bo‘lgan qiziqishni oshirishga qaratilgan. Bunda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida ijodiy yondashuvning o‘rni va pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** faol ta‘lim usullari, ijodkorlik, pedagogik tizim, innovatsion texnologiyalar, ijodiy rivojlanish, kasbiy tayyorgarlik.

Oxirgi ta‘lim tizimida bo‘lajak pedagoglarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, yangilik yaratish va muammolarga ijodiy yondashuvni shakllantiruvchi shaxs bo‘lishi zarur. Shu boisdan bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ijodiy faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizim modelini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish muhim vazifa sifatida belgilab qo‘yilgan. Demak, ta‘lim muassasalarida aynan ijodiy rivojlanishga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini tashkil etish bugungi kun talabidir.

Pedagogik tizimning mohiyati va tuzilmasi — bu ta‘lim jarayonini tashkil etuvchi komponentlarning ya‘ni maqsad, mazmun, usul, vosita, natijalar o‘zaro bog‘liq holda faoliyat

yuritishidir. Bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash jarayonida bu tizim ijodiy faoliyatni shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Ijodiy rivojlanishga yo‘naltirilgan pedagogik tizim quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Maqsadli komponent – o‘qituvchining ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni maqsad sifatida belgilaydi;

Mazmuniy komponent – o‘quv dasturlari va fanlar mazmunida ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, innovatsion loyihalarni o‘z ichiga oladi;

Amaliy komponent – mashg‘ulotlar davomida ijodiy faoliyatni rag‘batlantiruvchi interfaol metodlardan foydalanishni ko‘zda tutadi;

Baholash komponenti – ijodiy faoliyat natijalarini diagnostika qilish, refleksiya asosida tahlil etishni o‘z ichiga oladi.

Maqsadli komponent — bu pedagogik tizimning yo‘nalishini, asosiy vazifasini va kutilayotgan natijani aniqlab beruvchi markaziy qismidir. U tizimning “nima uchun” va “nimaga erishish kerak” degan savollariga javob beradi. Boshqacha aytganda, maqsadli komponent – bu butun tizimning yuragi bo‘lib, ta’lim jarayonini yo‘naltiruvchi konseptual asosdir.

Maqsadli komponentning asosiy vazifalaridan biri bu pedagogik vazifalarni bajaradi:

1. Tizimning asosiy yo‘nalishini belgilaydi — ya’ni tizimning umumiy konsepsiyasi va rivojlanish strategiyasini aniqlaydi.

2. Pedagogik faoliyatni boshqaradi — o‘qituvchi va talaba faoliyatini yagona maqsad sari yo‘naltiradi.

3. Natijani prognozlaydi — tizimning kutilayotgan samarasi qanday bo‘lishi kerakligini belgilaydi.

4. Motivatsiyani shakllantiradi — o‘quvchilar va o‘qituvchilarda ijodiy rivojlanishga bo‘lgan ichki ehtiyojni uyg‘otadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy rivojlantirishdagi maqsadli komponent mazmuni: ijodiy fikrlaydigan, innovatsion g‘oyalarni qo‘llay oladigan, muammolarni mustaqil hal eta oladigan mutaxassis sifatida shakllantirish. Shular bilan birga talabalar ongida ijodiy yondashuvni qadriyat sifatida shakllantirish; mustaqil fikrlash va refleksiya madaniyatini rivojlantirish; ta’lim jarayonida yangilik yaratish, tahlil qilish, sintez

qilish ko'nikmalarini o'stirish; pedagogik faoliyatda ijodiy g'oyalarni tatbiq etishga o'rgatish; kasbiy-ijodiy kompetensiyani ya'ni o'qituvchining kasbiy faoliyatda ijodkorlikni qo'llay olish qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat.

Maqsadli komponentning ahamiyati: Butun pedagogik tizimni birlashgan konsepsiyaga keltiradi; tizimdagi boshqa komponentlar ya'ni motivatsion, mazmuniy, texnologik, natijaviy kabi bir yo'nalishda ishlashini ta'minlaydi; o'qituvchi tayyorlash jarayonida ijodiy rivojlanishning strategik yo'nalishini belgilashidan iborat.

Mazmuniy komponent — 6y pedagogik tizimning asosiy g'oyasi, ta'lim mazmuni, o'quv material va o'quv jarayonida shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni o'zida mujassam etuvchi qismidir. Shu bilan birga mazmuniy komponent — tizimning “nima o'qitiladi?”, “qanday bilim va ko'nikmalar beriladi?” degan savollariga javob beradi. U pedagogik jarayonning axborot-mantiqiy asosini tashkil etadi.

Mazmuniy komponentning maqsadi — bo'lajak o'qituvchining ijodiy, kasbiy va pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan bilimlar tizimini tanlash va tartibga solishdan iboratdir. Mazmuniy komponentning asosiy tarkibiy qismlari:

Nazariy bilimlar tizimi ya'ni pedagogika, psixologiya, didaktika va ijodkorlik nazariyalariga oid ilmiy asoslar;

Amaliy ko'nikmalar ya'ni o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, metodik ishlanma tayyorlash, muammoli vaziyatlarni hal etish;

Ijodiy faoliyat mazmuni ya'ni yangi metodik g'oyalar ishlab chiqish, innovatsion yondashuvlarni sinovdan o'tkazish;

Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) ya'ni raqamli vositalardan ijodiy ta'limda foydalanish, onlayn resurslar bilan ishlash Kasbiy qadriyatlar O'qituvchi shaxsining mas'uliyat, yangilikka ochiqlik, o'z ustida ishlash kabi fazilatlarini shakllantirishdan iborat.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy rivojlantirishdagi mazmuniy komponent mazmuni modelda quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

Ijodiy fikrlash asoslari — ijodiy tafakkur, muammoli vaziyat tahlili, yangi g'oyalar ishlab chiqish;

Pedagogik-psixologik tayyorgarlik — bolalar tafakkuri, motivatsiya, o'quvchi shaxsini rivojlantirish qonuniyatlari.

## Адабиётлар рўйхати

1. Жалолов Ж. Педагогик технологиялар ва ижодий таълим. – Тошкент: Фан, 2021. – 220 б.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни. – Тошкент, 2020. – 40 б.
3. Мусурмонова О. Педагогик тизим ва креативликни ривожлантириш. – Бухоро, 2022. – 180 б.
4. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. – Тошкент, 2020. – 35 б.
5. Хасанбоева О., Очилов М. Педагогика назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Ўқитувчи, 2019. – 256 б.
6. Хидирова Н.Ш. Ёш авлодни тарбиялашда таълим ва тарбиянинг ўрни. – «Таълимда инновациялар ва интеграция» журнали, №18, 2-сон, апрель 2024, 157–160 б.